

**O'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar daromadlarini
soliqqa tortish**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Navro'zova Farog'atxon Abduxamid qizi

***Annotatsiya:** Maqolada o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning ilmiy — nazariy asoslari yoritib berilgan. Mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari asoslangan. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish budjetlar daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini oshirish yuzasidan tartib va amaliy tavsiyalar taklif etildi. Bundan tashqari, mahalliy budjet daromadlarini oshirish yo'llari bo'yicha tadqiqot olib borilgan bo'lib, mavzu doirasida iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari o'rganilib, xulosa va takliflar shakllantirildi.*

***Kalit so'zlar:** jismoniy shaxslar daromad solig'i, yer solig'i, ko'chmas mulk, mahalliy budjet, mahalliy budjet daromadlari, mahalliy hokimiyat organlari, mahalliy soliqlar, soliq, soliq stavkasi, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.*

Kirish: “Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda davlat budjeti daromad manbalari sifatida jismoniy shaxslarning daromadlari va ko'chmas mulklari uchun to'lanadigan soliqlar hisoblanadi. Jumladan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining budjet daromadlari tarkibidagi ulushi AQShda 35,9 foiz, Germaniyada 35,1 foiz, Rossiya Federatsiyasida 30,4 foiz, Buyuk Britaniyada 25,8 foiz, Xitoyda 6,9 foizni tashkil etmoqda.

Ma'lumki, mamlakatda fuqarolarning daromadi qanchalik yuqori bo'lsa, o'sha davlatda iqtisodiy-ijtimoiy yuksalishga erishiladi. “Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan Farmonlaridan kelib chiqib, hayotga tatbiq etilayotgan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning

Taraqqiyot strategiyasi xalqimiz istiqboli, to'kin turmushi va porloq kelajagiga qaratilganli bilan quvonarlidir”.

O'zbekiston Respublikasi Soliq qonunchiligamuvofiq o'zini-o'zi band qilgan shaxslarning mehnatfaoliyati natijasida olingadaromadlari jismoniy shaxslar jamidaromadlari tarkibig kiritilmaydi ya'ni imtiozga ega. O'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan belgilangan miqdorda to'langan ijtimoiy soliq summalari asosida ularning mehnat staji hisobga olinadi. Bunda, o'zini o'zi band qilgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nazorat-kassa texnikasi va bank plastik kartochkalari orqali hisob-kitoblar bo'yicha to'lov terminallaridan foydalanadi hamda tijorat banklarida hisobvaraqlari ochishi mumkin¹.

Soliq tizimida u yoki bu soliqlardan samarali foydalanish uchun ularning hozirgi kundagi ahamiyatini, soliqlar turkumlanishini kengroq o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarning tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlarini soliqqa tortish masalalarini tadqiq etish va ushbu subyektlar faoliyatini soliqlar ta'sirida rivojlantirish ahamiyatlidir.

Soliq qonunchiligida belgilangan o'zgarish va qo'shimchalardan kelib chiqqan holda yakka tartibdagi tadbirkor (YaTT)lar quyidagi tartiblar bo'yicha soliqlarni to'laydi.

Tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy faolligi oshishi, soliq ma'murchiligida yangi instrumentlarning joriy etilishi va xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashish natijasida 2021-yilda soliq turlari bo'yicha ham sezilarli ravishda o'sish kuzatilib, 2020-yilga nisbatan foyda, qo'shilgan qiymat solig'i soliq tushumlari 1,3 baravarga, noruda qazilmalardan soliq va suv solig'i tushumlari 1,4 baravarga, yer solig'i 1,7 baravarga o'sdi. Yashirin ish o'rinlarini legallashtirishga qaratilgan tadbirlar natijasi bilan daromad solig'i to'lovchi jismoniy shaxslar soni 502 mingtaga oshdi hamda o'zini o'zi ish bilan band qilish tizim orqali ro'yxatga olinganlar soni 1,2 mln. tani tashkil etdi. Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 6,5 ming xotin-qizlarga davlat maqsadli jamg'armasi tomonidan 100 mlrd 341 mln so'm kredit

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrda 806-son qarori.

resurs mablag'lari ajratib berildi. Shu bilan bir qatorda, 2021-yilning o'zida "Ayollar daftari"ga kiritilgan ehtiyojmand xotin-qizlarning tadbirkorlik loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida yil davomida 96 873 nafar xotin-qizlarga 1 trln 197 mlrd.so'm kredit mablag'lari ajratildi. Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 6,5 ming xotin-qizga Davlat maqsadli jamg'armasi tomonidan 100 milliard 341 million so'm miqdorida kredit resurs mablag'lari ajratib berildi.

2022-yil yakunlari bo'yicha esa, 90 mingta yuridik va 96 mingta yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlari davlat ro'yxatidan o'tkazildi. Tijorat banklari tomonidan hududlardagi 54,9 mingdan ziyod xizmat ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlarga 41,9 trln.so'm kredit mablag'lari ajratildi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish choralari ko'rildi.

O'tgan 2022-yildagi "Ochiq muloqot"da belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali bandligini ta'minlash orqali 121 ming 731 nafar yoshlarga 2 trln 894 mlrd so'm kredit ajratildi. Tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagida bo'lgan 103 mingdan ziyod xotin-qizlar tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilib, ular tomonidan 200 951 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Shuningdek, 233 ming nafardan ziyod xotin-qizlarga oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida jami 4,7 trln.so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratildi. Umuman olganda mamlakatimizda tadbirkorlikni, ayniqsa kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, ularning faoliyatida kelib chiqayotgan muammo va to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha kompleks choralar ko'rilmoqda. Natijada o'tgan bir yilda 55 mingdan ortiq biznes uchun mo'ljallangan binolar barpo etildi, pul aylanmasini 1 million dollardan oshirgan tadbirkorlar soni 5 mingtaga ko'payib, 26 mingtani tashkil etdi, eksport qiluvchi korxonalar soni 7,5 mingtaga yetib, jami eksport hajmi 30 foizga ko'paydi.

"2023-yil 12-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik sub'ektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni e'lon

qilindi. Mazkur huquqiy hujjatga asosan, mamlakatimizda “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturi amalga oshiriladi. 2023-2024-yillarda dasturni amalga oshirish uchun jami 1 milliard AQSh dollari miqdorida kredit ajratiladi. Bunda dasturga kiritilgan tadbirkorlik sub’ektlarining loyihalarini moliyalashtirish uchun 2023-yilda Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan tijorat banklariga 100 million AQSh dollari ekvivalentida kredit liniyasi ochiladi”².

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasidagi loyihalarni moliyalashtirish uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar hisobidan 1 trillion so‘m yo‘naltiriladi. Xalqaro moliya tashkilotlaridan 200 million AQSh dollari miqdorida kreditlar jalb qilinadi. Kredit liniyasi mablag‘lari tijorat banklariga 10 yil muddatga, shu jumladan, 3-yillik imtiyozli davr bilan 10 foiz stavkada beriladi.

Mazkur jarayonda bir qator imtiyoz va preferensiyalar qo‘llanilishini alohida qayd etib o‘tish joiz. Jumladan, tadbirkorlar tomonidan “Ijtimoiy himoya yagona reestri”ga kiritilgan fuqarolar ishga qabul qilinganda 2025-yil 1 yanvargacha, tadbirkorlar ushbu fuqarolarga kamida bir yil davomida har oy mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1 baravari darajasidan kam bo‘lmagan ish haqi to‘lab, bandligini ta‘minlagan va ular jami ishchilar sonining kamida 20 foizini tashkil etganda, mol-mulk va yer soliqlaridan imtiyoz beriladi.

Shuningdek, fuqarolar ishga qabul qilinganda hamda har bir oy uchun ish haqi miqdori mehnatga haq to‘lashning eng kam darajasining 1 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda hisoblanganda, oylik ish haqi bo‘yicha to‘langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i respublika byudjetidan ish beruvchiga (har bir ishchi uchun BHMning 2 baravarigacha) qaytarib beriladi hamda ularga ijtimoiy soliq stavkasi 50 foizga kamaytirilgan holda qo‘llaniladi. Tadbirkorlarga ayrim turdagi soliqlar hamda bojxona to‘lovlarini ta‘minotsiz va foizsiz bir yilgacha bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqi beriladi. Bundan tashqari, tadbirkorlar davlat mulki bo‘lgan ko‘chmas mulk ob’ektlari va yerga bo‘lgan huquqlarni auksion orqali sotib olganida, to‘lovlarni 5 yilgacha bo‘lib-bo‘lib to‘lashlari mumkin bo‘ladi.

Shu o‘rinda soliq va bojxona ma‘muriyatchiligini soddalashtirish borasida

² <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/country/uzbekistan>
www.pedagoglar.org

belgilangan ustuvor vazifalarga ham alohida e'tibor qaratib o'tish lozim. Belgilab qo'yildiki, qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash (qaytarish), shuningdek, barcha soliq turlari bo'yicha mavjud ortiqcha to'lov summasini qaytarish bir kun muddatda tezlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, tovarlar importida va tovarlar yoki xizmatlar realizasiyasida to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini bojxona va soliq organlarining hisob tizimlarida o'zaro hisobga olish imkoniyati beriladi. Eng e'tiborlisi, bojxona nazoratini amalga oshirishda "yashil yo'lak" qoidalari amal qiladi.

Ko'rilayotgan ushbu chora-tadbirlar hududlarning yo'l-transport, elektr, aloqa va turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda kichik va o'rta shaharlarni rivojlantirish, mahallalarni sanoatlashtirish, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va rivojlantirishga xizmat qilishi bilan birga, aholining bandligi hamda doimiy daromad manbaiga ega bo'lishida ham muhim omildir. Bu zanjirning bir butun bo'lishi iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Iqtisodiy o'sish, o'z navbatida, farovonlik olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, hamjihatlikda amalga oshirilayotgan islohotlar mavjud qiyinchiliklarga qaramay o'z samarasini berib kelayapti. Kichik va o'rta biznes, xususiyl tadbirkorlikning rivojlanishi yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, fuqarolarning daromadlari va farovon yashashini ta'minlashga alohida hissa qo'shmoqda. Mazkur jarayonlarning muvaffaqiyati va yuqori samarali bo'lishida davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan islohotlar strategiyasining aniq va izchil amalga oshirilganligi mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni taklif qilamiz:

Hozirgi kunda mahalliy budjetga biriktirilgan daromadlar turlari shuningdek qonunchilik asosida mahalliy soliqlar ro'yxatini kengaytirish maqsadga muvofiq; Mahalliy budjet daromadlari barqarorligini ta'minlash maqsadida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar miqdorlarini har yili qayta ko'rib o'zgartirish kiritmasdan, hech bo'lmaganda 3 yilda bir marta o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu esa o'z navbatida mahalliy budjet daromadlari barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.